



**BUGUNGI ADABIY JARAYONDA DRAMATURGIYA. (MUROD MUHAMMAD
DO'ST IJODI MISOLIDA)**

Alimardonov Quvonchbek

O'zMPU Filologiya Fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

alimardonovquvinchbek233@gmail.com

Nargiza To'xtayeva

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20200523>

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy o'zbek dramaturgiyasining rivojlanish tendensiyalarini, janr xususiyatlarini, badiiy-estetik o'ziga xosliklarini va zamonaviy adabiy jarayondagi o'rnini tadqiq etishga bag'ishlanadi. Asosiy e'tibor mustaqillik davri dramaturgiyasidagi mavzu boyligi, janr xilma-xilligi, psixologik realizm, tarixiy va zamonaviy mavzular ifodasi hamda zamonaviy teatr san'ati bilan uyg'unlashuvga qaratiladi. Maqolada zamonaviy o'zbek dramaturgiyasining yetakchi namoyandalaridan biri Murod Muhammad Do'st ijodi misolida nasriy asarlarning dramaturgik potentsiali, qahramonlar ruhiyatining tasviri va badiiy izlanishlar alohida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy dramaturgiya, badiiy jarayon, psixologik realizm, tarixiy drama, zamonaviy mavzu, janr xilma-xilligi, teatr san'ati, milliy an'analar, Murod Muhammad Do'st, "Lolazor", "Galatepaga qaytish".

Аннотация: Данная статья посвящена изучению тенденций развития современной узбекской драматургии, жанровых особенностей, художественно-эстетической специфики и места в современном литературном процессе. Основное внимание уделяется тематическому богатству, жанровому разнообразию, психологическому реализму, выражению исторических и современных тем в драме периода независимости, а также гармонии с современным театральным искусством. В статье отдельно анализируются драматургический потенциал прозаических произведений, изображение психики персонажей и художественные поиски на примере творчества одного из ведущих представителей современной узбекской драматургии Мурода Мухаммада Дуста.

Ключевые слова: современная драматургия, художественный процесс, психологический реализм, историческая драма, современная тема, жанровое разнообразие, театральное искусство,



национальные традиции, Мурод Мухаммад Дуст, «Лолазор», «Возвращение в Галатепу».

Abstract: This article explores the development trends of modern Uzbek dramaturgy, its genre characteristics, artistic and aesthetic specificity, and place in the modern literary process. The main focus is on thematic richness, genre diversity, psychological realism, expression of historical and modern themes in the drama of the independence period, and harmony with modern theatrical art. The article separately analyzes the dramatic potential of prose works, the depiction of characters' psyche, and artistic searches on the example of the work of Murod Muhammad Do'st, one of the leading representatives of modern Uzbek dramaturgy.

Keywords: Modern dramaturgy, artistic process, psychological realism, historical drama, modern theme, genre diversity, theatrical art, national traditions, Murod Muhammad Do'st, "Lolazor," "Galatepaga qaytish."

Zamonaviy o'zbek adabiyotida dramaturgiya alohida o'rin tutadi. Adabiyotning eng qiyin turi hisoblangan dramaturgiya eramizdan avvalgi antik davrda qadimgi Gretsiyada paydo bo'lib, miloddan avvalgi VI asrlarda xalq hajviy tomoshalaridan boshlangan, V asrlarga kelib esa ilk yunon dramalari, keyinroq tragediya va komediyalar shakllangan. Bu buyuk an'analar o'zbek milliy dramaturgiyasining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatgan. O'zbek dramaturgiyasining yozma asarlari XX asr boshlarida paydo bo'ldi. 1911-yilda Behbudiyning "Padarkush yoki o'qimagan bolaning holi" asari ilk dramatik asar sifatida tan olingan. Shundan so'ng "To'y" (Nusratulla Qudratulla va Hoji Mu'in), "Boy ila xizmatkor", "Ko'knor", "Mazluma xotin" (Hoji Mu'in), "Juvonmarg", "Ahmoq" (Abdulla Badriy), "Baxtsiz kuyov" (Abdulla Qodiriy), "Zaharli hayot", "Ilm hidoyati" (Hamza), "Pinak", "Advokatlik osonmi?" (Avloniy) kabi asarlar yaratildi. Bu asarlar drama janri imkoniyatlarini o'zida to'la ifodaladi. Mustaqillikdan so'ng o'zbek dramaturgiyasi yangi bosqichga ko'tarildi. Milliy qadriyatlarga, ona tiliga, Vatanni sevish, inson psixologiyasiga chuqur murojaat qilishga bo'lgan e'tibor kuchayishi natijasida zamonaviy drama jiddiy rivojlanishga erishdi. Dramaturgiya va rejissurada katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yaratilgan tarixiy va zamonaviy mavzulardagi asarlarda insonni ulug'lash, Vatanga mehir va sadoqat, qadriyatlarimizga hurmat g'oyalari badiiy g'oyalarda o'z aksini topdi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy adabiyotshunoslikda dramaturgiya umumiy jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, aynan bugungi adabiy jarayondagi dramaturgiyaning o'ziga xosligi, uning badiiy-estetik xususiyatlari, zamonaviy teatr san'ati bilan uyg'unlashuviga alohida e'tibor qaratilmagan. Ushbu maqola mazkur bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Mustaqillik davri dramaturgiyasining rivojlanishi



Mustaqillikning ikkinchi o'n yilligi orasida dramaturgiyamiz tez rivojlanib boshladi. So'ngi yillar dramaturgiyasi shakl va mazmun tomondan yangilandi, janr imkoniyatlari kengaydi. San'atkorlar jahon dramaturgiyasining barhayot tajribalaridan unumli foydalana boshladilar. Bu yillar an'analarga ko'ra ko'plab she'riy dramalar dunyoga keldi. E.Vohidovning "Istanbul fojiasi", A.Oripovning "Sohibqiron", U.Qo'chqorning "Rasululloh kotibi", R.Bobojonning "Yusuf va Zulayho" kabi asarlar ana shu usulda bitilgan. Dramaturgiyaning rivojlanishi va yangilanishi mavzu ko'lamining kengayishida yaqqol ko'rinadi. Bu borada ayniqsa tarixiy mavzudagi sahna asarlarning ko'payganligini alohida ta'kidlash lozim. Tarixga munosabatning o'zgarganligi, buyuk ajdodlarimizning badiiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy merosini qadrlash, tarixiy manbalarni o'rganish tufayli xalqimiz o'zligini anglash jarayonini boshidan kechirdi. Ayniqsa Amir Temur, Ahmad al-Farg'oniy, Mashrab singari murakkab tarixiy shaxslar haqida rang-barang janrlarda turli shakllardagi sahna asarlari dunyoga keldi. Bular orasida O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning "Fotih Muzaffar yoxud bir parivash qissasi" nomli tarixiy dramasi muhim o'rin tutadi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, O.Yoqubov dramaturgiya borasida xiyla tajribali adib. 60-yillardayoq "Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim", "Yurak yonmog'i kerak", "Chin muhabbat", "Olma gullaganda", "Bir koshona sirlari" deb atalgan dramalari bilan shuhrat qozongan edi. Mana shu tajriba va mahorat san'atkorning so'ngi dramasida o'zining yaxshi samarasini bergan. Bu davrda zamonaviy mavzularda ham ko'plab dramalar dunyoga keldi. Bu borada Erkin Xushvaqto'v, Salohiddin Sirojiddinov, Usmon Azim, Sanjarali Imomov, Xoliq Xursandov, Nasrullo Qobil, Komil Avaz Toir Yunusovlar samarali ijod qildilar. Ulardan ba'zilarining asarlari teatrlarning doimiy repertuariga aylandi va tomoshabinlarning tashnaligini qondirib, teatrlarga qiziqishini orttirdi.

Zamonaviy dramaturgiyaning janr xususiyatlari

Bugungi o'zbek dramaturgiyasining o'ziga xos tamoyillari va janr xususiyatlari bir necha jihatlar bilan namoyon bo'ladi:

Tragediya va komediya janrlarining rivojlanishi. Zamonaviy dramaturgiyada tragediya va komediya janrlari yangicha talqin etilmoqda. Tragediyada insonning ruhiy kolliziyasi, hayot-mamot kurashi ifodalanadi. Komediya esa jamiyatdagi illatlarga qarshi kurash, hazil-hazul va kinoya orqali ijtimoiy tanqid amalga oshiriladi.

Drama janrining kengayishi. Drama janri sifatida ziddiyatli hayotni ifodalash imkoniyatlari kengaymoqda. Zamonaviy dramada insonning ichki dunyosi, ruhiy kezishmalar chuqur tadqiq etiladi.



Melodrama va tragikomediya. Zamonaviy mavzular ko'proq melodrama, komediya, tragikomediya janrlari doirasida ishlanmoqda. Ayniqsa, maishiy-axloqiy komediyalar teatrlar repertuaridan keng o'rin egallamoqda.

Tarixiy drama. Tarixiy mavzudagi dramalar soni ortmoqda. Bu asarlarda buyuk ajdodlarimizning hayoti, milliy tarixning muhim sahifalari badiiy talqin etiladi.

Murod Muhammad Do'st ijodi misolida zamonaviy dramaturgiya

O'zbekiston xalq yozuvchisi Murod Muhammad Do'st (1948) zamonaviy o'zbek dramaturgiyasining yetakchi namoyandalaridan biri hisoblanadi. Adib 1948-yil 12-aprelda Samarqand viloyatining Jom qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetining tarix fakultetining falsafa bo'limini tugatgan (1971), so'ngra Moskvadagi Adabiyot institutida tahsil olgan (1974-1979). Ijodiy faoliyatini 70-yillarda boshlagan. Adibning "Qaydasan, quvonch sadosi?" (1976) nomli dastlabki hikoyalar to'plami, "Mustafo" (1977), "Iste'fo", "Bir toychoqning xuni" (1979), "Galatepaga qaytish" (1983), "Dashtu dalalarda" (1987) kabi hikoya va qissalari, "Lolazor" (1988) romani nashr etilgan. Adib 1990-yilda Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti, 1999-yilda esa Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. Asarlari asosida badiiy filmlar suratga olingan. Murod Muhammad Do'st o'zining ijodiy faoliyati davomida zamonaviy o'zbek dramaturgiyasining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Uning asarlari psixologik realizm, inson ruhiyatining chuqur ifodasi, ijtimoiy-falsafiy muammolarning dramatik talqini, milliy an'analar va zamonaviy uslublarning uyg'unlashuvi jihatlari bilan ajralib turadi. Adibning asarlari dramaturgik potensialga boy bo'lib, ular teatr sahnalarida muvaffaqiyatli sahnalashtirilgan.

Janr xilma-xilligi va mavzu boyligi. Murod Muhammad Do'st asarlarida hikoya, qissa, roman janrlari uyg'unlashgan. "Mustafo" qissasi dramaturgik qiziqarli asarlardan biri hisoblanadi. Asarda Mustafo — mumin, muloyim, kamgap chol obrazi tasvirlangan. Uning Ibodullo Maxsum bilan suhbatlari, Bolta qassobning kamsitishlariga qarshi turishi, o'zining ichki kezishmalari chuqur psixologik tahlil orqali ifodalanadi. "Lolazor" romani esa o'zbek romanchiligining jiddiy hodisasi bo'lib, unda turg'unlik yillaridagi murakkab hayotiy jarayon, shu'rolar tuzumining yemirilishi va kommunistik mafkuraning tanazzuli ishonarli tasvirlanadi.

"Galatepaga qaytish" qissasi istiqloq arafasi o'zbek nasrida muhim voqea bo'lib, unda G'aybarov — adabiyotda hali uchramagan yangicha dunyo, yangicha tafakkur kishisining obrazi yaratilgan. Bu asarlar dramaturgik jihatdan boy bo'lib, ular teatr sahnalarida muvaffaqiyatli sahnalashtirilishi mumkin.

Psixologik realizm va inson ruhiyatining chuqur ifodasi. Murod Muhammad Do'st asarlarida qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy kezishmalar, xotira va orzular chuqur tadqiq etiladi. "Lolazor" romani markazida ikki qadrdon do'st —



respublikaning mas'ul rahbari Oshno va shu oshno panohida "dongdor" yozuvchi daraajasiga ko'tarilgan Nazar Yaxshiboyev taqdiri yotadi. Roman muallifi bu ikki shaxs umr yo'lini, avvalo, Nazar Yaxshiboyev nigohi orqali ifoda etadi. Ammo muallif bu bilan cheklanmaydi. Asarga yana bir muhim figurani — qissana'vis Saidqul Mardonov obrazini olib kiradi. Bu ikki xil tabiatli, ikki xil maslakli yozuvchi orqali ifoda etilishi asarga o'ziga xos bahs, polifonik xususiyat baxsh etadi.

"Dastu dalalarda" hikoyasida Polvon va Xatcha obrazlari orqali inson ruhiyatining eng nozik qatlamalari ochib beriladi. Polvonning jismoniy azobi va ko'ngildagi g'urur, Xatchaning qo'rquvi va umidsizligi, ularning o'zaro munosabatlari dramatik tarzda tasvirlangan. Muallif ustalik bilan ruhiy tig'iz sahnalarni ketma-ketlikda berib boradi. Milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi. Murod Muhammad Do'st asarlarida milliy urf-odatlar, xalq orasidagi o'ziga xos munosabatlar keng yoritiladi. "Galatepaga qaytish" qissasida Galatepa — yozuvchining o'ziga tanish maskani, Samarqand viloyatiga qarashli Jom qishlog'ining adabiy nomi sifatida tasvirlangan. Bu yurtni yozuvchi asarlarida qadrdon maskan, kindik qoni to'kilgan yurt sifatida ifodalaydi. Asarlarda do'stlik, sadoqat, halollik, mehnatsevarlik kabi umuminsoniy qadriyatlarga murojaat qilinadi. "Lolazor" romani Oshno va Yaxshiboyevning oshnoligi, ularning bir-biriga sadoqati, keyinroq bu munosabatlarning murtlashish jarayoni orqali insoniy munosabatlarning murakkabligini ifodalaydi.

Zamonaviy teatr san'ati bilan uyg'unlashuv. Murod Muhammad Do'st asarlari mamlakatimiz teatrlarida keng sahnalashtirilgan. Uning asarlari dramaturgik potensialga boy bo'lib, ular teatr sahnalarida muvaffaqiyatli sahnalashtirilishi mumkin. Asarlari asosida badiiy filmlar suratga olingan. Bu asarlar zamonaviy teatr texnologiyalari — yorug'lik effektlari, ovoz effektlari, sahna dekoratsiyalari orqali yanada jonli tasvirlanadi.

Rejissyorlar asarni o'zicha talqin qilib, yangi sahna yechimlari yaratmoqda. Bu dramaturgiya va teatr san'ati o'rtasidagi uyg'unlikni mustahkamlaydi.

Tarbiyaviy ahamiyati. Murod Muhammad Do'st dramaturgiyasining asosiy vazifalaridan biri insonlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashdir. "Mustafo" qissasida muminlik, sabr-toqat, o'ziga ishonch fazilatlarini ulug'lanadi. "Lolazor" romani insonning o'zini-o'zi tanishi, o'z xatolarini anglashi, vijdon so'rovi g'oyalari ifodalanadi.

Adib o'z asarlarida ayrim kishilarning salbiy xislatlarini ochib berishga intilgan va o'quvchilarni o'zlaridagi kamchiliklarni tuzatishga undagan. "Lolazor" romani orqali yozuvchi o'z davrining dolzarb muammolarini ko'tarib, jamiyatni o'ylantiradigan ibratli saboq beradi.

Psixologik realizm va inson talqini



Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasida psixologik realizm muhim o'rin tutadi. Dramaturgiya doim insonga murojaat qiladi, uning qalb sirlarini ochishga intiladi, insoniy o'zaro munosabatlar mohiyatini anglashga harakat qiladi.

Inson psixologiyasiga chuqur murojaat. Zamonaviy dramalarda qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy kezishmalar, xotira va orzular chuqur tadqiq etiladi. Bu asarlar tomoshabinni qahramonning ruhiy holatini tushunishga, o'zini-o'zi tanishga undaydi.

Ziddiyatlar dramaturgiyasi. Asarlarda ijtimoiy, shaxsiy, ruhiy konfliktlar bir-biriga chambarchas bog'langan. Bu ziddiyatlar dramaning dramtizmini oshiradi va tomoshabinni chuqur o'ylantiradi.

Bugungi dramaturgiya zamonaviy teatr san'ati bilan uyg'unlashib rivojlanmoqda:

Sahnalashtirish imkoniyatlari. Zamonaviy teatr texnologiyalari — yorug'lik effektlari, ovoz effektlari, sahna dekoratsiyalari asarning vizual ta'sirchanligini oshiradi.

Musiqiy va raqs elementlari. Dramalar musiqiy va raqs sahnalari bilan boyitilmoqda. Bu asarning kayfiyatini oshiradi va tomoshabinlarni qiziqtiradi.

Interaktivlik. Zamonaviy teatrda tomoshabin va sahnadagi qahramonlar o'rtasidagi aloqa kuchaymoqda. Ba'zi spektakllar tomoshabinlarni faol ishtirok etishga undaydi.

Kostyum va sahnalashtirish. Zamonaviy dramalar kostyum va grim orqali jonli tasvirlanmoqda. Bu asarning vizual ta'sirchanligini oshiradi.

Rejissyor talqini. Rejissyorlar dramaturg asarini o'zicha talqin qilib, yangi sahna yechimlari yaratmoqda. Bu dramaturgiya va teatr san'ati o'rtasidagi uyg'unlikni mustahkamlaydi.

Xulosa

Bugungi o'zbek dramaturgiyasi mustaqillikdan oldingi davrga nisbatan mavzuiy jihatdan boyib, janriy jihatdan xilma-xillashdi, inson psixologiyasiga chuqurroq murojaat qila boshladi. Zamonaviy dramaturgiya nafaqat badiiy qimmatga ega, balki jamiyatda milliy ong, ma'naviy-estetik tarbiya, ijtimoiy adolat kabi muhim fazilatlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Murod Muhammad Do'st ijodi zamonaviy o'zbek dramaturgiyasining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Uning asarlari janr xilma-xilligi, inson psixologiyasiga chuqur murojaat, milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unlashuvi, zamonaviy teatr san'ati bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashuvi jihatlari bilan ajralib turadi. Adibning "Mustafo", "Galatepaga qaytish", "Dashtu dalalarda", "Lolazor" kabi asarlari bugungi kun teatrlarining doimiy repertuariga aylandi va keyingi avlod dramaturglari uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda.



Ayniqsa, quyidagi xususiyatlar alohida ta'kidlanishi lozim:

1. Mavzuiy boylik va janr xilma-xilligi — hikoya, qissa, roman janrlarining rivojlanishi;
2. Psixologik realizm va inson psixologiyasiga chuqur murojaat;
3. Milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi;
4. Zamonaviy teatr san'ati bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashuv;
5. Ijtimoiy-falsafiy muammolarning dramatik talqini;
6. Dramaturgiya va rejissura o'rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishi.

Kelajakda dramaturgiyada zamonaviy texnologiyalar, global muammolar, sun'iy intellekt kabi yangi mavzular ham yoritilishi, asar va ekran talqini (rejissyorlik, dizayn) uyg'unlashuvi kuchaytirilishi lozim. Dramaturgiya doim insonga murojaat qiladi, uning qalb sirlarini ochishga intiladi, insoniy o'zaro munosabatlar mohiyatini anglashga harakat qiladi, bu inson tarixiy yoki zamonaviy bo'lishining ahamiyati yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Solijonov Y. Hozirgi adabiy jarayon. — T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020.
2. Isokova M. Dramaturg mahorati. — T., 2021.
3. Tashmuxammedova L. Adabiyot tarixi va nazariyasi.
4. To'laxo'jayova M., Qozoqboev T. Drama nazariyasi. — T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2014.
5. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. — T.: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
6. Tursunov T. Sahna va zamon. — T.: Yangi asr avlodi, 2007.
7. Ikromov H. Davr va teatr. — T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat taxiliy nashriyoti, 2009.
8. Tursunov T. O'zbek teatr tarixi. — T.: Yangi asr avlodi, 2007.
9. Bayandiev T. San'at masalalari — teatrshunos nigohida. — T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2009.
10. O'zbek adabiyotida dramaturgiya. Oriental Renaissance, 2022, 2 (5).
11. Normatov U. Yaqin kechmishning halol va teran badiiy tahlili. Murod Muhammad